
RASMIY MUNOSABAT



Ijtimoiy tarmoqlarda Qo'shtepa tumanidagi Qumtepa bozorining orqa tomonida joylashgan Eshonguzar mahallasini bozor bilan bog'lovchi yo'lda aholiga ichimlik suvi tortilayotganligi uchun haftaning payshanba va yakshanba kunlari avtomobillar harakati serqatnovligi natijasida turli noqulayliklar kelib chiqayotganligi haqidagi murojaat e'lon qilindi.

Joriy yilda Qo'shtepa tumanidagi Eshonguzar MFY hududida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qishloq infratuzilmasini rivojlantirish" loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4898-sonli qaroriga ko'ra 19 kilometr yangi ichimlik suvi tarmog'i tortish va boshqa bir qancha ishlarni bajarish rejalashtirilgan bo'lib, ayni kunlarda pudratchi tashkilot "Barkamol temir butlash" MChJ tomonidan qurilish ishlari olib borilayotganligini va qurilish ishlari qisqa muddat ichida o'z nihoyasiga yetkazilishini ma'lum qilamiz.

Qo'shtepa tumani hokimligi Axborot xizmati.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2023-08-21 16:10:54